

TA'LIM TIZIMIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH MEKANIZMLARI.

Rustamova Laylo Nusratilla qizi

O'zDJTU Filologiya va tillarni o'qitish:xitoy tili yo'nalishi 25/03 guruh talabasi.

Anotatsiya: *Ushbu maqola jamiyatda gender tengligi barqarorligini ta'minlash vositalari, va tenglikni buzuvchi omillar hamda ularga munosib yechimlarni tahlil qiladi. Gender tenglik ta'lim tizimida o'g'il va qiz bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishda, adolatli muhitni shakillantirishda muhim omil hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *gender tenglik, normativ hujjatlar, pedagogik mexanizmlar, moliyaviy qo'llab quvvatlash, ayollarning ulushi.*

Abstract: *This article analyzes the means to ensure the sustainability of gender equality in society, the factors that undermine equality, and appropriate solutions to them. Gender equality is an important factor in creating equal opportunities for boys and girls in the education system and in creating a just environment.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, нормативные документы, педагогические механизмы, финансовая поддержка, доля женщин.*

Аннотация: *В данной статье анализируются средства обеспечения устойчивости гендерного равенства в обществе, факторы, подрывающие это равенство, и соответствующие решения этих проблем. Гендерное равенство является важным фактором создания равных возможностей для мальчиков и девочек в системе образования и создания справедливой среды.*

Keywords: *gender equality, regulatory documents, pedagogical mechanisms, financial support, the share of women.*

KIRISH

Raqamli texnologiyalar asrida inson va jamiyat taraqqiyotida ilm olishning o'rni beqiyosdir. Gender tengligi ayol-qizlarning ta'lim olishda va mehnat bozoriga kirishda, chet elda malaka oshirish orqali yurt rivojiga hissa qo'shishda, jamiyatni ilmiy qilishda katta yordam beradi. Bugungi kunda, ta'limda ayollar uchun bir qancha cheklolar borligi hech kimga sir emas. Ushbu ilmiy maqolada gender tengligini ta'minlash mexanizmlarini yoritish bilan bir qatorda muammo yechimlari ham izohlanadi

Asosiy qisim

Ayol kishi faqatgina ona va xizmatchi emas, albatta. Inson tug'ilibdiki, yetuklikka, mukammallikka ergashadi. Shuningdek, ayollar ham jamiyatning ajralmas qismi sifatida ilm olish, mehnat qilish huquqlariga egadir. Ammo ma'lum vaqt mobaynida ba'zi davlatlarda ayollarning huquqlari tengligi poymol qilingani hech kimga sir emas. Ammo bugungi rivojlangan zaminda nafaqat ayollar va hatto bolalar va keksalarning ham huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Himoyaning esa bir qancha yo'nalishlari va turlari mavjud bo'lib, quyida ular haqida ma'lumot beriladi. Qonun har sohada o'z o'rniga ega ekani hech kimga sir emaski, gender tenglikni ta'minlashda ham qonun

ustuvorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Buning yaqqol isboti sifatida "O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O'RQ-562-son 1-2-3 moddalar"ni misol qilish mumkin. Bu qonunning o'z natijasi esa ayollarning ham davlat organlariga saylanishi va saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lganida anglashiladi. Shuningdek, xotin-qizlarning yuqori lavozim egallashi ham qonun bilan kafolatlandi. Endi avvalgidek, ayol.kishi eplolmaydi, ayol kishi bosh bo'lishi mentalitimizga to'g'ri kelmaydi kabi gap-so'zlarga o'rin yo'q. Mentalitet aslida davlatni farovonlikka olib chiqish yo'lidir. Ayollar ham bu yo'lda yo'lovchi va ko'makchi emasmi ? Yaqqol isbot sifatida, 2025-yil " Yuksalish" harakati faoliyati natijasida O'zbekistondagi top 40 ta ayol rahbarlar ro'yxati tuzildi. Bu ko'rsatgichdan ayollarning mehnat bozorida ham raqob kuchliligini va faqatgina eng munosiblarigina yuqorri marralarni zabt etishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, jins vakillari orasidagi ijtimoiy tenglikni saqlashda institutsional mexanizmlar ham alohida rol o'ynaydi. Ya'ni ta'lim tizimida gender masalalari bo'yicha mas'ul tuzilmalarni tashkillashtirish. Masalan, Oliy ta'limda " Gender tenglik bo'yicha komissiya" yoki " Xotin-qizlar komissiyasi" kabilar ham shu jumlasidandir. Bu kabi tuzilmalar esa nafaqat ta'lim tizimida va balki ularning keyingi bosqich faoliyatlarida ham qo'llab quvvatlashga ,huquqlarini himoyalashga ,ko'rsatmalar berib ayollarning ham yuksalishiga o'z hissasini qo'shadi. 2025- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekistonda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 43 860 tani tashkil etgan. Bu esa faqatgina korxonalar miqyosidagi statistik ma'lumot bo'lib, boshqa tarmoqlarda ham xotin-qizlarning ko'lamini yanayam kengaymoqda. Shuningdek, ijtimoiy tenglikni saqlashda pedagogik mexanizmlar ham o'z o'rniga egadir. Pedagogik mexanizmlar deganda, o'quv dastur va qo'llanmalarida erkak va ayol obrazlarining muvozanatda berilishi, o'qituvchilarning ta'lim jarayonida ikki jins vakiliga ham teng munosabatda va adolatli bo'lishi, gender stereotiplarini mustahkamlovchi tasvir va matnlarni bartaraf etish nazarda tutiladi. Zero, insonni ruhlantirish ham ruhan sindirish ham ayni uning bolalaik chog'ida bo'ladi. Aynan maktab davridanoq qizlarni kuchli va matonatli qilib tarbiyalash har bir fuqaroning burchidir. Shu qatorda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning, "Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak" fikrlari yaqqol misoldir. Bugungi kunda " Tadbirkor ayol" onlayn platformalarida ham xotin-qizlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Moddiy tomondan foizsiz kreditlar ajratilmoqda va ularning o'z faoliyatlarini shakllantirishda boshlang'ich bilim.va ko'nikmalar ham berilmoqda. Shuni aytib o'tish joizki, iqtisodiy mexanizmlar ham ayollarning jamiyatda o'z o'rnini topishi va raqobatbardosh bo'la olishiga katta yordam beradi. Ya'ni, ta'lim tizimida xotin-qizlar uchun grant stipendiyalar ajratish, kam ta'minlangan oila qizlariga moddiy yordam berish ham shular jumlasidandir. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

Farmoni, 07.03.2022-yildagi PF-87-son", "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 402-son 23.06.2020-yil" normativ hujjatlarida 2025-yilda, xotin-qizlar uchun bakalavr ta'lim tizimida 4000 ta grant kvota ajratilgani bayon etilgan. Shuningdek, yolg'iz ayollarga, ko'p farzandlilarga "Temir daftar" da turuvchi oilalarga ham imtiyozli grant o'rinlari ajratildi. Shuningdek, bakalavrdan keyingi bosqich, magistraturaga ham ayollar kontrakt to'lovsiz qabul qilinishlari ma'lum qilindi. Bu esa, ta'lim sohasida yaratilgan bir qancha yengilliklar bo'lib ayollarning ilmi bo'lishi uchun tashlangan dastlabki qadamlardan biridir.

Ta'limda gender tengligi ta'minlanishi natijasida, shu sohadagi yutuqlar yanada barqaror bo'ladi, ayniqsa qizlar orasida. Oliy ta'lim va ilmiy faoliyatda ayollarning ulushi ortadi, ayollar jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi. Donishmandlarimiz aytganidek, "Erkak ilmi bo'lsa – farzand ilmi bo'ladi, ayol ilmi bo'lsa – millat ilmi bo'ladi". Ayol faqatgina ona emas, jamiyatda ijtimoiy va siyosiy hayotda qanchalik kerak bo'lsa, oilaning tinch va farovon, ilmi bo'lishida ham ayolning o'rni shunchalik beqiyosdir. Shuningdek, Payg'ambarimiz (s.a.v) marhamat qilgan: "Ilm olish har bir musulmon (erkak va ayol) uchun farzdir deganlari ayni haqiqatdir. Farz amallar esa faqatgina inson manfaatlari uchun buyirilgandir. (Ibn Majah, 224). Bundan tashqari, Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri" kitobida keltirilgan quyidagi jumla ham katta ma'no kasb etadi: "Jamiyat kamoloti undagi barcha a'zolarining bilimiga bog'liq." Forobiy, "Ayolni jamiyatning to'liq va ajralmas a'zosi sifatida ko'radi. Yuksak hurmat va ehtirom bilan qaraydi. Ayol ilmi bo'lmasa, jamiyat ham fozil bo'la olmaydi", g'oyasini ilgari suradi. Ibn Sino ham, "Bola tarbiyasida eng katta ta'sir ona bilimiga bog'liq" — deya e'tirof etadi. Ibn Sino ayolni birinchi muallim deb biladi." Ayol ilmi bo'lsa — kelajak avlod ilmi bo'ladi", desak ham gap o'z isbotini topadi.

Xulosa.

Xulosa sifatida, ta'lim sohasida gender tenglikni ta'minlashda va muhofazalashda, davlatning—qonunning ijtimoiy, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashi muhim ro'l o'ynaydi. Xotin-qizlarning ilmi bo'lishi natijasida esa, nafaqat millatda oila ilmi bo'ladi balki, jamiyat ham o'ziligini anglashda bo'lajak onalarning farzandiga beradigan ilmiga tayanadi. Buning natijasi albatta kelajakda jamiyat rivoji va farovonligida o'z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. (2021). O'zbekistonda ta'limda gender tenglikni rivojlantirish strategiyasi. Toshketengliknt: O'qituvchi nashriyoti.

Rasulova, D., & Mirzaeva, S. (2020). Ta'lim va gender: O'zbekiston misolida. Toshkent: Fan.

Xolmatova, N. (2019). Qizlarning ta'lim olishi va jamiyat barqarorligi. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.

UNESCO O'zbekiston vakolatxonasi. (2018). Ta'limda gender tenglik: siyosat va amaliyot. Toshkent: UNESCO.

Karimov, A. (2017). Maktab va universitetlarda gender tenglikni ta'minlash. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi nashriyoti.

Islomova, L. (2016). Ta'limda qizlarni qo'llab-quvvatlash: nazariy va amaliy jihatlar. Toshkent: Ta'lim fanlari jurnali, 4(2), 15–25.

United Nations Development Programme (UNDP) O'zbekiston. (2019). Gender tenglik va barqaror rivojlanish maqsadlari. Toshkent: UNDP.

Ergasheva, M. (2015). O'zbekiston maktablarida gender masalalari. Toshkent: Ilmiy nashrlar.

"TARAQQIYOT STRATEGIYASI" MARKAZI